



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



OILA HUQUQI VA ZAMONAVIY IJTIMOIY MUAMMOLAR: AJRIMLAR, ALIMENT VA BOLA TARBIYASI

Qoraboyeva Gullola Boybo'ri qizi
Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi
O'quvchisi
Telefon: +998 94 494 44 60

Kirish

Oila – jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Har bir davlatda sog‘lom jamiyat qurishning asosiy sharti bu mustahkam oilalarning mavjudligidir. Ammo so‘nggi yillarda O‘zbekiston jamiyatida oilaviy ajrimlar sonining ortib borayotgani, aliment bilan bog‘liq nizolar, farzandlar taqdirlari masalalari dolzarb muammoga aylanmoqda.

Asosiy qism

Oila kodeksi va boshqa normativ hujjatlar orqali davlat oilaning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-moddasiga ko‘ra, er-xotinlar teng huquqlarga ega, nikoh erkin asosda tuziladi va o‘zaro rozilik bilan ajratiladi. Biroq amalda ajrimlar ko‘p hollarda farzandlar taqdiri, aliment to‘lovidagi nizolar va ijtimoiy beqarorliklarga olib kelmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ajrimlarning asosiy sabablari oilaviy zo‘ravonlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy mas’uliyatsizlikdir. Ayniqsa, erkaklar tomonidan aliment to‘lashdan bo‘yin tovlanishi bolalarning huquqlarini buzishga olib kelmoqda. Aliment undirish “Sud qarorlarining ijrosi to‘g‘risida”gi qonun va Majburiy ijro byurosi orqali amalga oshiriladi. Biroq bu tartib ham ba’zida samarasiz qolmoqda.

Bola tarbiyasi ham bugungi kunning dolzarb muammosidir. Ajrashgan oilalarda bolalar ko‘pincha e’tiborsiz qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (41-modda) va “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi qonun asosida har bir bola mehr va e’tiborga, ta’lim olishga va sog‘lom muhitda yashashga haqlidir. Ammo ajrashishdan keyingi ijtimoiy psixologik muhit bu normalarni buzadi.

Xulosa

Oila huquqi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va ma’naviy normalarni ham qamrab oladi. Ajrimlar sonini kamaytirish, aliment undirish tartibini soddallashtirish va farzandlar taqdiriga davlat va jamiyat e’tiborini kuchaytirish dolzarb vazifalardandir. Bu yo‘lda huquqiy targ‘ibot, ota-onalar mas’uliyatini oshirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.